



O'zbek tilida fonetika haqida umumiy ma'lumot

Qanoatova Nazokat Sotvoldi qizi

Filologiya kafedrası o`qituvchisi

Tel : +998 90 527-77-79

E-mail : nazokatatm@gmail.co

Umaraliyeva Sevinch Saydullo qizi

University of economic and pedagogy ingliz tili

filologiya yo`nalishi 1-bosqich talabasi

[Tel:+998-93-449-87-70](tel:+998-93-449-87-70)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Inson nutqi gaplardan, gaplar soʻzlardan, soʻzlar tovushlardan tashkil topadi. Nutqimiz boʻlinuvchanlik xususiyatiga ega boʻlgan turli birliklardan iborat ekanligi, Hozirgi davr tilshunosligida jahon tillarining oʻxshash va farqli alomatlarini oʻrganish tillar tipologiyasi deb atalishi, Tilning talaffuz alomatlari nazariy jihatdan oʻrganiladi. Fonetika amaliyotda keng qoʻllanilishi haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: fonetika, tilshunoslik, amaliyot, til birliklari, tovsh, gap, nutq, ahamiyat, talaffuz, morfologiya.

Fonetikada tildagi tovushlar, ularning paydo boʻlishi va turlari, nutq organlari, ularning tovush hosil qilishdagi harakat holati, nutq apparati, nutq tovushlarining. Akustik



va artikulyatsion xususiyatlari, nutq jarayonida sodir bo‘ladigan turli xil fonetik hodisalar, nutqning fonetik bo‘linishi, tovushlarining kommunikativ roli hamda prosodika kabi hodisalar o‘rganiladi. Demak, fonetika – (gr. Phone – tovush)

Tilning keng ma’noda tovush tuzilishini o‘rganuvchi tilshunoslikning bo‘limi. U tovushlar bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday hodisalarni tekshiradi. Shu sababli unga tilning faqat tovush tizimini tekshiruvchi bo‘lim sifatida qarash noto‘g‘ri.

Har bir til o‘z fonetikasiga ega. U shu tildagi tovushlarning hosil bo‘lishi va talaffuzining o‘ziga xos xususiyatlarini, uning tasnifi bilan bog‘liq masalalarni, o‘rganadi, talaffuz va yozuv munosabatlarini hamda urg‘u va bo‘g‘in xususiyatlarini tekshiradi.

Fonetika tilning tovushlar sistemasi va shu tovushlar bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday hodisalarni o‘rganar ekan, u tilning barcha sathlari bilan, ayniqsa, leksika va grammatika bilan bog‘lanadi.

Fonetika tovushlarning almashinishi va o‘zgarishi, adabiy talaffuz me’yorlari, to‘g‘ri talaffuz qilish qoidalari, bo‘g‘in va urg‘u, uning turlari kabi muammolarni ham o‘rganadi. Demak, fonetika haqida zaruriy ma’lumotga ega bo‘lmay turib, to‘g‘ri talaffuz qilish bilan aloqador bo‘lgan orfografiya va grammatika (morfologiya va sintaksis) qoidalari ustida ham muvaffaqiyatli ish olib borish mumkin emas. Shu bilan birga, fonetikani o‘rganish orfografiya (to‘g‘ri yozish), orfoepiya (to‘g‘ri talaffuz qilish) me’yorlarini yaxshi o‘zlashtirib olishga, adabiy talaffuz bilan shevalar talaffuzi o‘rtasidagi farqni aniqlashga katta yordam beradi.

Demak, fonetika tilshunoslikning orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, grammatika, dialektologiya kabi bo‘limlari bilan bevosita aloqadordir. Fonetika fizika (akustika qismi) va fiziologiya fanlari bilan ham yaqin munosabatdadir.

Fonetika tovushlarning eshitilish tomonini o‘rganishda akustikaga, talaffuz qilinishi, aytilishi, hosil qilinish tomonlarini o‘rganishda fiziologiyaga tayanib ish ko‘radi.



Bundan tashqari, u adabiyotshunoslik (hijolar, o'ldov metrika va ta'sirli o'qish kabi) va ijtimoiy fanlar bilan doimiy aloqada bo'ladi. Nutq tovushlarini turli tomondan o'rganish mumkin: tarixiy nuqtai nazardan, qiyosiy tomondan, hozirgi o'zbek tili va mahalliy dialektlarning nutq tovushlarini taqqoslash jihatidan, nutq tovushlarini turli asboblarda yordamida eksperiment qilish yo'li bilan va boshqalar. Shunga ko'ra, fonetika nazariy planda umumiy fonetika va xususiy fonetikaga, amaliy planda esa tarixiy fonetika, qiyosiy fonetika, tavsifiy fonetika, eksperimental fonetika kabi bir necha sohaga bo'linadi.

FONETIKA O'Z TEKSHIRISH OBEKTINING DAVRGA MUNOSABATI NUQTAI NAZARIDAN 2 XIL BO'LADI

1. (sinxron) fonetika va tarixiy 2. (diaxron) fonetika.

Tasviriyl fonetika muayyan konkret til tovush tarkibining hozirgi davrdagi ahvolini o'rganadi. Tarixiy fonetika biror konkret tildagi nutq tovushlarining tarixiy taraqqiyotini, qanday o'zgarishlarga uchraganini va bu o'zgarishlarning sabablarini tekshiradi.

Umumiy fonetika barcha tillar uchun umumiy bo'lgan fonetik xususiyatlarni (nutq Tovushlarining hosil bo'lishi, ularning universal tasnifi, tovushlarning birikish qonuniyatlari, Yondosh tovushlardan birining ikkinchisiga ta'siri va boshqalarni) o'rganadi. Umumiy

Fonetika xususiy fonetika materiallariga asoslanadi. Tarixiy fonetika tilning fonetik tizimini Tarixiy taraqqiyotida, rivojlanish jarayonida o'rganadi. Tasviriyl fonetika esa muayyan til

Fonetik tizimining hozirgi holatini o'rganadi. Qiyosiy fonetika ikki til fonetikasini, qarindosh

Tillar tovush tizimini bir-biriga qiyoslab o'rganadi. Eksperimental fonetika nutq tovushlarini, Fonetik hodisalarni ma'lum texnik vositalar yordamida o'rganadi. Fonetika (



grekcha phone – “ tovush “ , -tike – “ fan “ soʻzla ridan) inson nutqini ifoda qilish uchun zarur boʻlgan tovushlar va ularning vositalari haqidagi tilshunoslik sohasidir.

Fonetika tilning boshqa sohalari bilan bogʻliq, chunki tovush, urgʻu va ohangsiz boʻgʻin, soʻz, Soʻz birikmasi va ran boʻlmaydi. Shu tufayli fonetika leksika, morfologiya, sintaksis va Stilistika bilan bogʻliq til bosqichi deb qaraladi. Oʻzbek tili fonetikasi ham chuqur Oʻrganilmoqda. Oʻzbek tilining tasviriy fonetikasini tadqiq qilishda V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, fonetika Abdullayev, A. Gʻulomovlar; oʻzbek tili fonetikasini 60-yillar Oxiridan eksperimental oʻrganishda A. Mahmudov va S. Otamirzayevalar; oʻzbek tilining Tarixiy fonetikasini oʻrganishda fonetika Abdullayev, Gʻ. Abdurahmonov, A. Rustamov, Q. Mahmudov, H. Neʼmatov, E. Umarovlarning xizmatlari katta.

Fonetikada nutq tovushlari 4

Tomondan oʻrganiladi:

- 1) Nutq organlarining nutq tovushlarini talaffuz qilishdagi harakati, yaʼni Artikulyatsiyasi oʻrganiladi;
- 2) Tovushlar qanday fizik tebranishlar natijasi ekanligi, yaʼni akustik tomonini hisobga Olinadi;
- 3) Nutq tovushlari boʻfin, urfu va ohangning eshituvchi tomonidan anglab his etilishi Tekshiriladi;
- 4) Nutq tovushlarining tildagi soʻzlar, frazalar va gaplarni bir-biridan farqlash uchun Xizmat qilishi, yaʼni fonologik tomoni oʻrganiladi.

Fonetikani oʻrganishning nazariy va amaliy ahamiyati bor. Tilning talaffuz alomatlari

Nazariy jihatdan oʻrganiladi. Fonetika amaliyotda keng qoʻllaniladi. Tilning tovush tarkibini yaxshi oʻrganishda, orfografiya masalalarini toʻgʻri hal qilishda, yozuvi boʻlmagan xalqning yozuvini yaratishda, eski yozuvdan yangi yozuvga oʻtishda, chet el tillarini



o'rganishda, tili chuchuk bolalarning tilini tuzatishda va boshqa sohalarda fonetikaning ahamiyati nihoyatda kattadir.

ADABIYOTLAR RO'YATI:

1. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. – Toshkent: <>, 2014. – 368
2. Sayfullayeva R., Mengliyev A. Hozirgi o'zbek adabiy tili –Toshkent: “Fan va texnologiya” – 2009. 414 b.
3. H. Jamolxonov . Hozirgi o'zbek adabiy tili .- Toshkent : “Talqin” , 2005 . 260 b.
4. U. Tursunov , A. Muxtorov , Sh . Rahmatullayev . Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: “O'zbekiston “ .1992 . B .17
5. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti D.A.Nabiyeva, H.R.Zokirova O'ZBEK TILI FONETIKASI O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA